



ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA HAJVIY TALQIN

Xalmuratova Ogulsaltan

*Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi talabasi*

COMIC INTERPRETATION IN THE POETRY OF ABDULLA ORIPOV

Xalmuratova Ogulsaltan

*Student majoring in Uzbek language and literature at
Nukus State Pedagogical Institute*

КОМИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В ПОЭЗИИ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА

Халмуратова Огулсалтан

*Студент по направлению Узбекский язык и
литература Нукусского государственного
педагогического института*



E-mail: ogulsaltanxalmuratova@gmail.com

Orcid: 0009-0006-4821-5694

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15283489>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek she'riyatida hajviy talqin va uning badiiy ifodasi masalasi tadqiq etiladi. Ijodkor badiiy mahorati xususida atroflicha mulohazalar bildiriladi. Mavzu Abdulla Oripov ijodi misolida o'rganilib nazariy va badiiy tahlil natijalari umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar. Individuallik, badiiy ifoda, obrazlilik, badiiy tafakkur, hajviy talqin.

Резюме. В статье рассматривается вопрос комической интерпретации и ее художественного выражения в узбекской поэзии. Приводятся различные дискуссий мастерстве автора. Проблема анализируется примеры из произведений Абдулла Орипова.

Ключевые слова. Индивидуальность, художественная интерпретация, образность, художественная идея, комическая интерпретация.

Abstract: The article examines the issue of comic interpretation and its artistic expression in Uzbek poetry. Problem different views about authors' skill. The article analyzes the examples of works Abdulla Oripov.

Keywords: Individuality, literary interpretation, literary idea, imagery, comic interpretation.

KIRISH.

Ma'lumki, she'riy asarda shoir ko'ngil kechinmalari inson yoki muayyan davr nidosi sifatida aks etadi. Shu ma'noda, shoir insoniy iztiroblar yoki voqelikka badiiy tafakkur orqali munosabat bildiradi. Negaki, she'ning vujudga kelishiga hayotiy asos sababchi bo'ladi. Zero, "Lirik she'ning hajman kichik bo'lishi, binobarin, tez yozilishi va hozirjavoblighi asarning davr muammolariga vobastaligini muvaffaqiyatli bajarishga ko'maklashadi. Bu jihatdan lirika va uning o'zbek adabiyotidagi janrlari tasnifini o'rganish nazariy ahamiyatgina emas, balki katta amaliy ahamiyatga ham ega" [3. 4].



Badiiy tasvirning namoyon bo‘lishi she‘riyatda ancha murakkab kechadi. Negaki, asosan oniy kechinma asosiga quriladigan lirik ifodada tahlil va talqin o‘zaro uyg‘unlashadi. Bu narsa badiiy tafakkurning kelgusi taraqqiyot tamoyillarini, realistik tasvir madaniyati imkoniyatlarini, janrlar va ijodiy uslublar rang-barangligini asoslaydi. Ta‘kidlanishicha, “Hajv (ar.-ustidan kulmoq) – biror shaxsni tanqid qilish, ayovsiz qoralash, kamchiliklarini sanab, ayblash maqsadida yaratiluvchi asar, adabiy janr... Hajvning konkret shaxsga yo‘naltirilganligi unda subyektivlikning kuchayishiga zamin yaratadi, ya‘ni muallifning o‘sha shaxsga munosabati hal qiluvchi ahamiyat kasb etib qolishi mumkin bo‘ladi” [7. 388-389]. Shunday ekan, A.Oripovning she‘riyatida hajviy talqin orqali jamiyatdagi muayyan kishilar qilmishlari, hayotdagi a‘moli, kirdikorlarini fosh qiluvchi kulgu bo‘lsa, insonning shu qadar tubanlikka yuz tutishi ma‘naviy fojia sifatida aks ettiriladi.

ASOSIY QISM.

Istiqlolgacha bo‘lgan davrlarda hajviy ruhdagi she‘rlarning kam yozilganligini e‘tirof etib, adabiyotshunos B.Norboev shunday ta‘kidlaydi: “Holbuki, hayotni hajviy ko‘z bilan ko‘rib poetik tadqiq etish xalq ko‘zining ochilishiga, millatning o‘zligini anglashga jiddiy yordam berishi mumkin edi. Hajviy ruh, hayotdagi va insondagi illatlar ustidan kulish orqali kamchiliklardan forig‘ bo‘lish, millat ongini yaxshilabgina qolmasdan, faollikning kuchayishiga yordam beradi. Shu ma‘noda, E.Vohidov, A.Oripovning illatlarni nishonga olib hajviy va majoziy she‘rlar ijod etishining tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati salmoqlidir” [6.7].

Darhaqiqat, hayotimizning ajralmas bir qismi bo‘lmish adabiyotning asosiy vazifalaridan biri, insoniyat hayotida uchraydigan voqea-hodisalarni badiiy talqin qilish, ma‘naviy yetuklikka chorlashdan iboratdir. Ushbu jihatdan hajviy asarlar alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, unda inson va jamiyatdagi salbiy jihatlarni kulgi orqali fosh etish, tanqidiy munosabatda bo‘lish yetakchilik qiladi. Hajviy asarlarning asosiy vazifalaridan biri insonlarni o‘z qilmishlari, xatolarini tushunishga undash va ularni tuzatishga yo‘naltirishdir. Shu ma‘noda hajviy talqinda kutilmagan burilishlar va istehzoli tasvir uslublari muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkor inson fe‘l-atvoridagi salbiy jihatlarni ko‘rsatish va jamiyatdagi kamchiliklarni tanqid qilishda hajv unsurlaridan samarali foydalanadi.

NATIJAR VA MUHOKAMALAR.

Lirikada ijodkor ichki olamining namoyon bo‘lishini uning ifoda uslubidagi o‘ziga xoslik vujudga keltiradi. Shu ma‘noda, ijodkorning ichki hissiyot boshqaruvi va tashqi muhit bilan o‘zaro muloqoti badiiy idrok imkoniyatlarini shakllantiradi. Mazkur jarayon voqelikka nisbatan munosabatli nutq sifatida aks etadi. Badiiy idrok etish jarayoni esa ritorik shakl va vositalarning o‘zaro aloqasiga tayanadi. Ya‘ni



ijodkor ongida shakllanadigan monologlashgan ifoda dialog hamda jonli soʻzlashuv uslubiga mansub savol-javoblarni vujudga keltiradi. Shuningdek, asar tili va ijodkor ruhiyati hamda matnning umumiy mohiyati orasida aloqa vazifasini bajaradigan shoir subyektida oʻzga bir mohiyat raqobati kuzatiladi. Unda muallifning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati, adabiy pozitsiyasi, ifodalamoqchi boʻlgan fikrning mazmun-mohiyatini aks ettirishda tahliliy imkoniyatlarining asosiligi satira va yumor mohiyatini yanada oydinlashtiradi

Abdulla Oripov sheʼrlarida inson qalbining eng nozik jihatlari, uning orzu-umidlari va ijtimoiy haqiqatlar haqida fikr yuritishga chorlaydi. Shoir ijodida faqat lirika va falsafiy mushohadalar emas, balki hajv ham alohida oʻrin tutadi.

Kampir bilmas, kim bu maxluq,

Yo bilsa ham unutdi.

Icha qolgin jon bolam deb

Hatto unga suv tutdi [1.46].

Abdulla Oripovning “Samoviy mehmon” sheʼridan olingan ushbu parcha insoniyatning ilmiy taraqqiyoti va maʼnaviy qadriyatlarini oʻrtasidagi muvozanat masalasini yoritib beradi. Shoir badiiy obrazlar vositasida jamiyatdagi keskin tafovutni tasvirlaydi: bir tomonda olimlar kashfiyoti va fan-texnika rivoji, boshqa tomonda esa oddiylik, samimiyligi va insoniylik muammosi parallel qoʻyiladi. Sheʼrdagi farrosh kampir fazoviy mehmonning kimligini tushunmaydi, lekin unga gʻamxoʻrlik qilishga tayyor. Bu holat shoir tomonidan insoniy mehr-oqibatning eng oliy qadriyat ekanligini koʻrsatib beradi. Kampirning “Icha qolgin, jon bolam deb, hatto unga suv tutdi” degan soʻzlari orqali inson qalbi va mehr tuygʻusining nozik ifodasini anglatadi. U fazoviy mehmonni qandaydir yot, begona kuch emas, balki oddiy mehmon sifatida qabul qiladi. Bu yerda shoirdan chuqur falsafiy fikrni koʻrish mumkin. Taʼkidlash kerakki, ilm-fan qanchalik taraqqiy etmasin, insoniylik va mehr-oqibat yoʻqolmasligi lozim.

Olimlarning xizmatlari

Yoʻq, bekorga ketmapti

Shuncha ishni qilishibdi

Faqat mehr yetmapti [1.47].

Shoir bir tomondan ilmiy yutuqlar, olimlarning katta xizmatlari haqida soʻz yurutsa, boshqa tomondan odamzod qalbining asosiy ozuqasi – mehr-oqibat tushunchalaridan uzoqlashayotganidan xavotirga tushadi. Umuman olganda, shoir bu misralar orqali insoniyatning rivojlanishi faqat ilm bilan emas, balki mehr-muhabbat bilan ham toʻldirilishi kerakligini eʼtirof etadi. Inson qay joyda, qay yoshda va qay ahvolda boʻlishidan qatʼiy nazar har doim mehrga muhtojdir. Zero, “A.Oripov



she'rlarida butun bashariyatga xos qadriyatlar, inson taqdiri va kamoloti, harom va halol mohiyati kabi ma'naviy-ma'rifiy muammolar diniy-ma'rifiy tushunchalar bilan ifoda qilinadi. Mazkur she'rlar insonga muayyan ma'noda o'z ta'sirini o'tkazadi, asar mazmunidan o'ziga tegishli xulosa chiqarishga chorlaydi" [5.101].

Abdulla Oripovning "Maymuniyat" she'rida inson va jamiyatning ma'naviy inqirozi hajviy ruhda mohirona yoritilganiga guvoh bo'lamiz. Shoir maymun obrazi yordamida o'zini san'at va adabiyotga daxldor deb hisoblaydigan, lekin aslida na iste'dodi na ma'naviy saviyasi yetarli bo'lmagan kishilarni hajv qiladi.

Ne qilsak ham qo'limizda inon-ixtiyor.

Bizning yo'lni to'solguvchi endi kim ham bor?

Shundoq deya maymun shirin o'ylarga bordi,

Song tavakkal... shoirlikni boshlab yubordi [2.143].

She'rdagi keltirilgan "qo'limizda inon-ixtiyor" so'zlari orqali o'zini mutloq hukmdor deb biladigan, lekin asli iqtidorsiz va salohiyatsizligi bois jamiyatga zarar yetkazayotgan kishilarga ishora qiladi. Shoir maymunning o'ziga nisbatan yuqori baho berishi va "tavakkal shoirlikni boshlab yuborishi" bilan iste'dodsiz kishilarning muayan sohaga kirib kelishini keskin qoralaydi.

XULOSA.

Abdulla Oripov hajviy she'rlari orqali jamiyatdagi muhim muammolarni o'ziga xos istehzoli kulgu asosida ifodalaydi. Shoir hajviyoti nafaqat kulgu, balki insoniyatni chuqur mushohada yuritishga undovchi badiiy haqiqatdir. Shu bois ham uning asarlarida ijtimoiy illatlar, madaniy qashshoqlik, insoniy qadriyatlarining yo'qolib borishi kabi dolzarb mavzularga jiddiy e'tibor qaratiladi. Oripov hajviy asarlari orqali insoniyatning ilmiy taraqqiyot va ma'naviyat o'rtasidagi tafovutini, san'at va ijod sohasidagi yuzakiliklarni fosh etadi.

Shoirning "Samoviy mehmon" she'rida ilm-fan va insoniy qadriyatlar o'rtasidagi tafovut hajviy yo'sinda ochib beriladi. She'r mazmuniga ko'ra, olimlar katta ilmiy yutuqlarga erishgan, koinotni zabt etgan, ammo ularning ishlarida insoniy mehr-oqibat yetishmayapti. She'rdagi kampir obrazi orqali oddiy insonlar tasvirlanadi, ularning ilm-fan olamidagi yiroqligi, biroq samimiyligi va mehribonligi asosiy o'ringa chiqadi. Kampirning samoviy mehmonni beg'araz mehmondo'stlik bilan kutib olishi, unga g'amxo'rlik ko'rsatishi orqali insoniyatning haqiqiy qadriyati ilm emas, balki mehr-oqibat ekanligi uqtiriladi. Shoir shunday xulosa chiqaradi: insoniyat taraqqiyoti faqat ilm-fan bilan emas, balki insoniylik bilan ham uyg'un bo'lishi kerak, aks holda taraqqiyot ma'naviy qashshoqlikni keltirib chiqaradi. Adabiyotshunos olim G.Ashurova ta'biri bilan aytganda "Abdulla Oripov xalq og'zaki ijodiga xos tasvir usullari, g'oya va obrazlardan foydalanib yangicha poetik tafakkur namunalarini



yaratdiki, natijada qadimiy ohanglarning zamonaviy poetik talqini vositasida zamondosh inson qiyofasini, ruhiyatini ochishga erishdi. Bu usul XX asrning 60-yillaridan o‘zbek she’riyatida ruhiyat tasvirining yetakchi estetik tamoyilga aylanish jarayonini qat’iylashtirdi” [4.22].

Kuzatiladiki, Abdulla Oripovning hajviy she’rlarida kulgi orqali hayotiy mantiq ma’no kasb etadi. U hajv orqali jiddiy muammolarni yorqin aks ettiradi, kishilarni o‘z hayotiy a’mollariga e’tibor berishga, xatolarini anglashga va tuzatishga undaydi. Jamiyatning eng og‘riqli nuqtalarini ko‘rsatib o‘tgan holda shunchaki kinoya yoki masxara qilish emas, balki insonni chuqur tafakkurga chorlaydi. Shoir insoniyatning taqdiri, jamiyat taraqqiyoti, ma’naviy qadriyatlarning saqlanishi kabi muammolarni badiiy talqin etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулла Орипов. Нажот қалъаси. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
2. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
3. Адабий тур ва жанрлар (тарихи ва назариясига оид). 2-жилд. Лирика. – Тошкент: Фан, 1992.
4. Ашурова Г. Абдулла Орипов шеърлятида анъана ва бадий маҳорат (образ, ғоя ва тасвир): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.
5. Матякупов С. Абдулла Орипов шеърлятида диалог: тасвир ва ифода мутаносиблиги / “Абдулла Орипов ижодий меросининг ўрганилиш масалалари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2021.
6. Норбоев Б. Истиқлол ва истеъдод тарбияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
7. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010.